

TA'LIM FANLARINI INTEGRATSIYALASHDA ELEKTRON TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH VA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH USULLARI

M.R. Annayeva – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: gamifikatsiya, personalizatsiya, interaktiv aloqa, elektron platforma, motivatsion yondashuv, sun'iy intellekt, Google Classroom, Classcraft, Google Expeditions, analitik-sintetik tovush metodi.

Ключевые слова: геймификация, персонализация, интерактивная связь, электронная платформа, мотивационный подход, искусственный интеллект, Google Classroom, Classcraft, Google Expeditions, аналитико-синтетический звуковой метод.

Key words: gamification, personalisation, interactive communication, electronic platform, motivational approach, artificial intelligence, Google Classroom, Classcraft, Google Expeditions, analytical-synthetic sound method.

Bugungi ta'lim tizimida elektron ta'lim texnologiyalari orqali ta'lim berish, ayniqsa, fanlararo integratsiyani tashkil etish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ta'limda fanlararo integratsiyalash, ya'ni turli fanlar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash, o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bunda o'qituvchilarning ta'lim jarayoniga elektron ta'lim vositalarini jalb qilishi, ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga darsni hissiy jihatdan boyitish ham bu jarayonda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ta'limda tarbiyachi-pedagogga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

“O'qitish - o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.

Ma'lumot - bunda nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi ko'zda tutiladi.

Inson kamoloti - bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir” [1:8].

Tadqiqotimizdan kelib chiqqan holda shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, ta'lim jarayoniga qo'yilgan talab, fanning maqsad hamda vazifasidan kelib chiqqan holda qo'yilsa-da, ta'limda yuqori samaradorlikka erishishda jahon tajribasida quyidagi omillar ta'sir qiladi:

“Gamifikatsiya: O'quv jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish, o'quvchilarda o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Masalan, onlayn baholash tizimlari va raqobatbardosh o'yinlar orqali o'quvchilarga mukofotlar va baholar taqdim etish, motivatsiyani oshirishi mumkin.

Personalizatsiya: Elektron ta'lim texnologiyalari orqali har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish va shaxsiy o'quv rejalari yaratish,

o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchlarini oshiradi va motivatsiyalarini kuchaytiradi.

Interaktiv aloqa: Onlayn forumlar, chatlar hamda videokonferensiyalar orqali o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi aloqa hamda muloqotni rivojlantirish, o'quvchilarga savollar berish va muammolarni muhokama qilish imkoniyatini yaratadi. Bu, o'z navbatida, ularning faol ishtirokini va motivatsiyasini oshiradi [5:16].

Ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha katta tajribaga ega mamlakatlar: Finlandiya, Singapur, AQSh tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yuqoridagi usul va vositalarni yakka yoki gibridda shaklda qo'llanganiga guvoh bo'lamiz. Bizning an'anaviy ta'lim tizimimizga qaraganda o'qituvchilarning erkinligi, darsni tashkil etishdagi motivatsion yondashuvlar, faol ta'limiy integratsiya bilan ajralib turadi.

Bugungi an'anaviy ta'lim tizimi, o'qitishning an'anaviy usullari zamonaviy elektron platformalar, sun'iy intellektga asoslangan dasturlardan foydalana oladigan yoshlarni qiziqitira olmasligi, bu esa ta'lim samaradorligini oshirmasligi tabiiy. Hozirgi o'quvchilar bir vaqtning o'zida turli fanlarga oid materiallarni qiyoslay olishi, yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda o'yin yoki emfatik usullarda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim turli tillarda olib boriluvchi maktablarda ona tili va davlat tilini qiyosiy o'rganishda elektron ta'lim texnologiyalari hamda fanlararo integratsiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o'qituvchi nafaqat dars jarayonida, balki dars mashg'ulotlari tugagandan so'ng ham masofadan o'qituvchi bilan ishlash imkoniyatini yaratadi, bu esa o'quvchining darslarga bo'lgan bog'liqligini oshiradi. Misol tariqasida esa quyidagi ta'lim platformalarini tavsiya etamiz:

Google Classroom: Umumta'lim darslarida bu onlayn platformadan foydalanish afzalligi shundan iboratki, undan nafaqat o'quvchilar bilan topshiriqlar bajarish, balki o'qituvchilar va o'quvchilar uchun muhim funksiyalari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari darslarni rejalashtirish, multimedia materiallarni baham ko'rish va topshiriqlarni baholash imkoniyatini taqdim etadi. Bu platforma orqali



o'qitish bizning ta'lim tizimimizga ham faol qo'llanilayotgan ta'lim platformalaridan biridir

Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning motivatsiyasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Devet Kember o'zining "Ta'limda o'quvchi va o'qituvchi motivatsiyasini oshirish" kitobida aynan ta'lim platformalari orqali o'qitishda "maktab – kollej – universitet" tizimi orqali o'quvchini integratsiyalashgan tizim asosida o'qitishni tavsiya etgan [5]. Bu tizim orqali o'qitish bizning ta'lim tizimimiz uchun ham begona bo'lmay maqsad jihatidan "ustoz – shogird" an'anasi orqali o'qitishga yaqin, lekin motivatsiya jihatidan farq qiladi. "Gogole Classroom" platformadan dars jarayonida foydalanish yuqorida aytib o'tgan "ustoz-shogird" an'anasini rivojlantiruvchi vosita sifatida qarash mumkin.



Yuqorida aytib o'tilganidek, motivatsiya o'quv jarayonining muhim omili bo'lib, o'quvchilarning darsdagi faol

ishtirokini, dars sifati va samaradorligini umuman sinfdagi natijalarini belgilaydi. Shuning uchun ham motivatsiyaning ahamiyati va uning amaliy ahamiyatini bilish o'qitish jarayonida birinchi o'rinda turadi. O'qituvchilar ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish va ularni mustaqil o'quvchilar qilish uchun ularni sinfdan tashqarida o'rganishga rag'batlantirish kabi bir qator strategiyalardan foydalanish holda o'quvchilar motivatsiyasini oshirishga yordam berishi mumkin. Xuddi shunday, turli xil o'qitish usullaridan foydalanish, ularning sa'y-harakatlari uchun muntazam ravishda fikr-mulohaza yuritish va e'tirof etish, texnologiyadan foydalanish ham o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi mumkin.

Ayniqsa ta'lim turli tillarda olib borilayotgan maktablarda o'z ona tili bilan birgalikda "mamlakat tili"ga mehr qo'yishi, o'zlashtirishi va yutuqlarga erishishida aynan ta'limiy dasturlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bir jihatni e'tiborga olish kerakki, O'zbekiston kabi ta'lim turli tillarda olib borilayotgan maktablarda savod o'rgatish tamoyillari ham bir-biridan farq qiladi. Misol uchun turkman tili maktablarda savod o'rgatish quyidagi tamoyil asosida olib boriladi:

"Anketa tamoyili: Bu tamoyil bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilarning, o'qituvchi fikrini tushinishi yoki o'zgartirishga urinish.

Ma'lumot tamoyili: O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalar, so'z boyligini oshirish uchun o'rganib harakat qilishi.

Tajriba tamoyili: O'qigan ma'lumotlarni tajriba orqali natijalantirib o'rganishi [3:10].

Darslar o'zbek tilida olib borilayotgan maktablarda esa savod o'rgatishda quyidagi an'anaviy metodik tamoyillari asosida olib boriladi:

" 1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o'sishini ta'minlaydi, o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo'linadi.

Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.


3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

a) savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi, bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi" [2:25].

Bundan ko'rinib turibdiki ta'lim turli tillarda olib borilayotgan maktablarda tilga o'rgatishga bo'lgan maqsad bir bo'lsada unga erishish yo'llari bir-biridan farq qiladigan tamoyillardan tashkil topgan, bu esa til o'rgatish jarayoniga ta'sir qilib, o'rganuvchi motivatsiyasiga ta'sir qilishi mumkin. Bunday muammolarga yechim sifatida ta'lim turli tillarda olib boriladigan mamlakatlar tajribasiga suyanan holda quyidagi usul va vositlarni taklif qilishimiz mumkin. Misol uchun hozirgi kunda texnologiya kompyuterlar, mobil telefonlar, planshetlar, interaktiv ilovalar va o'yinlar, virtual ma'ruzalar, videolar va aqlli doskalarni o'z ichiga oluvchi texnologiyalardan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu texnologiyalar yordamida quyidagi ta'limiy platformadan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi:

Classcraft: Bu ta'limiy dastur ta'lim samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda faol qo'llanilib keladigan dasturlaridan biri bo'lib, afzalligi: aniq vaqt davomida o'quvchilarni ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda standartlashirilgan, o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llash uchun xizmat qiladigan, bundan tashqari ma'lum tajriba sinovlarini amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi dasturdir. Bu dasturning boshqa imkoniyatlaridan biri o'quvchining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib berilayotgan topshiriqlarni o'yin ko'rinishida: turli xil robotlar, multfilm qahramonlari, yuqori sinflar uchun esa laboratoriya ko'rinishida tashkil etish mumkin.



Google Expeditions: Bu ta'limiy dastur sun'iy intellekt asosida ishlaydigan platforma bo'lib, asosan tabiiy va ijtimoiy fan-

larda foydalanish yanada samaraliroq bo'ladi, chunki bu dasturda rasm va videolarni jonlantirish, 3D format asosida rasmlarni jonlantirish mumkin. Misol uchun tarix fani darsida "Qadimgi misr firavnlari" hayotini



yoritishda quyidagi tasvirlar kabi ko‘rinish hosil qilishimiz mumkin bo‘ladi, bu esa o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga mavzu haqida to‘liq tasavvur hosil qilish

mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari bu dasturni O‘zbekiston ta‘lim tizimida foydalanish orqali tarixiy ajdodlarimiz hamda madaniy obyektlarimizni jonlantirish orqali o‘quvchilarni vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada jonlantirish imkoniyatini ham beradi. Bu esa o‘quvchilarni ta‘limga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zero, metodist olim filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To‘xliyev “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida ta‘kidlaganidek: “Qayta xotirlash faoliyati - o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa, o‘rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi. U izlanishga, kashf etishga ehtiyoj sezmaydi. Qisman izlanuvchanlik

faoliyatida talaba yo‘naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalarining o‘xshash va farqli tomonlari ustida o‘ylashi, uni topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma‘lum sharoitlarda qo‘llashi lozim. Ilmiy-ijodiy faoliyatda talaba hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan, kompyuterda) qo‘llay olishi, faoliyat uchun zarur bo‘lgan, lekin o‘zida bo‘lmagan bilimlar manbalarini bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra unumli foydalanish usullarini egallashi talab qilinadi. Talabaning ijodiy faoliyat tajribasiga qanchalik ko‘p asoslansak, ta‘limning samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi [6:12].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari va dasturlaridan foydalanish o‘qituvchilar ish faoliyatini sezilarli darajada yaxshilash bilan birga, o‘quvchilarning bilim olishi fanga bo‘lgan qiziqishi, shaxsiy motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Fan bo‘yicha tajribalar, onlayn laboratoriyalardan foydalanish, fanlar o‘rtasida integratsiyani yuzaga keltirish kabi zamonaviy ta‘lim tizimi oldidagi dolzarb masalalarga yechim bo‘la oladi.

Adabiyotlar

1. Mavlyanova R., Raxmankulova N. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2013.
2. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yuldoshova Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi (darslik). – Toshkent: 2009.
3. Babakulow H. Türkmen dilini okatmagyň usulyýeti. –Türkmenabat: 2010.
4. Panagiotidis P. Technology as a Motivational Factor in Foreign Language Learning, European Journal of Education, January - June 2023.
5. Kember D. Understanding the Nature of Motivation and Motivating Students through Teaching and Learning in Higher Education, Singapore: Springer Science Business Media; 2016.
6. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma). O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. -T.: 2006.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolamizda ta‘lim fanlarini integratsiyalashda elektron ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish muammolari, zamonaviy ta‘lim tizimining eng dolzarb masalalari haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari ta‘limda qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, jumladan, onlayn platformalar, mobil ilovalar, va interaktiv dasturlar, ta‘lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish vositalarining imkoniyatlari, elektron ta‘lim texnologiyalarining integratsiyalashuvi orqali o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirish usullari ko‘rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье представлена проблема применения электронных технологий обучения и повышения мотивации учащихся в интегрировании образовательных предметов, а также наиболее актуальных вопросах современной системы образования. В том числе рассмотрены методы повышения учебной мотивации учащихся посредством инновационных технологий, применяемых в обучении, в том числе онлайн-платформ, мобильных приложений и интерактивных программ, возможностей средств, позволяющих более эффективно и интересно провести образовательный процесс, за счет интегрирования электронных технологий обучения.

SUMMARY. In this article is considered the problems of using e-learning technologies and increasing student motivation in the integration of educational disciplines, the most pressing issues of the modern education system. In addition, innovative technologies are considered used in education, including online platforms, mobile applications and interactive programs, the possibilities of tools to make the educational process more effective and interesting, ways to increase students' learning motivation through the integration of e-learning technologies.